

# **MATERIALLARNI QIRQUVCHI DASTGOHLAR FANIDAN TALABALAR BILIMLARINI BAHOLASHNING MIQDORIY REYTING USULI**

***Umarov Rahim Tojiyevich, Tog'ayev Xo'jamberdi***

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lif kafedrasi o'qituvchilari,  
Jizzax, O'zbekiston  
e-mail:rahim@jspi.uz*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Materiallarni qirquvchi dastgohlar fanidan talabalar bilimini baholashning miqdoriy reyting usulidan foydalanishga e'tiborni qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** bilim, ko'nikma, malaka, miqdoriy reyting usuli, texnologik ta'lif, faoliyat talablari, maxsus jadval, talablar sxemasi.

\*\*\*

**Аннотация:** В этой статье основное внимание уделяется использованию метода количественной оценки для оценки знаний учащихся по предмету «Станки для резки материалов».

**Ключевые слова:** знания, умения, квалификации, метод количественной оценки, технологическое образование, требования к деятельности, специальная таблица, схема требований.

\*\*\*

**Annotation:** This article focuses on the use of a quantitative rating method to assess students' knowledge of the subject of Material Cutting Machines.

**Keywords:** knowledge, skills, qualifications, quantitative rating method, technological education, activity requirements, special table, requirements scheme

Talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash muammosi pedagogikada garchi yangi bo'lmasada,adolatli hal qilishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelinadi, chunki talabani baholash avvalo sub'ektiv tavsifga ega: o'qituvchi aniq ilmiy asoslangan talab va me'zonlarga tayanmagan holda, talabani o'zining shaxsiy taassuroti va fikri asosida baholaydi. Bu esa bir xildagi ishni turli o'qituvchilar tomonidan har xil baholanishida namoyon bo'ladi. Jumladan, bir o'qituvchi talaba faoliyatini baholashda asosiy e'tiborni uning materialni chuqur bilishiga, ikkinchisi uning notiqligi (ravon va tushunarli bayon qilishiga)ga, uchinchisi fikrlashining mustaqilligiga, to'rtinchisi esa amaliy ko'nikmalarining yuqori darajada shakllanganligiga qolganlari esa talabalarning boshqa faoliyatiga e'tibor qaratishadilar.

Shundan kelib chiqib talabalar bilimini baholashning miqdoriy reyting usulidan foydalanish ularning bilimini baholashning aniq va xolisona hamda atroflicha o'rganib baholash usuli ekanligini hisobga olish lozim. Biz mazkur maqolada

Materiallarni qirquvchi dastgohlar fanidan talabalar bilimini baholashning miqdoriy reyting usulidan foydalanishga e'tiborni qaratamiz.

Amaliy mashg'ulotlardagi talabalar faoliyatida, barcha o'quvchilar ishda bir xilda faol ishtirok etadi deb bo'lmaydi, chunki ularning ayrimlari passiv kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. Bunda barcha talabalarni faol ishtirokini ta'minlash maqsadida ma'lum bir talablarga rioya qilishni taqazo qiladi. Xo'sh bunday holda bu ishni qanday amalga oshirish lozim? Bizningcha bu o'rinda talabalar bilimini to'g'ri baholashning nisbatan eng to'g'ri va aniq usullaridan biri, ularga har bir faoliyati bo'yicha ballar berib jamlashdir, ya'ni miqdoriy reyting usulini qo'llash va pog'onali (differentsial) baholash maqsadga muvofiqdir.

Talabaning amaliy ishlarni bajarishdagi baholash faoliyatiga nazariy bilimlar saviyasi, sxemani oqilona tshuna olishi, uskuna va jihozlarni to'g'ri tanlay olishi va foydalanishi, amaliy mashg'ulotni bajarish sifati, dastgoh va uning qismlarini o'rni va joylashuvini tushuna olishi, hisoblashga oid ishlarni to'g'ri bajarishi, hisobotni rasmiylashtirishi, xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi va ishga nisbatan munosabati hamda boshqa shu kabi xislatlari va fazilatlari kiradi.

Tajribali o'qituvchilarning fikriga ko'ra, talabalarning muvaffaqiyatini avvalo yuqoridagi faoliyat omillarining barchasi yoki hech bo'limganda ko'pchiligi bo'yicha baholash yaxshi natija beradi. Ular asosida jamlangan o'rtacha baho qo'yiladi. Mashg'ulot davomida ba'zida vaqt yetishmasligi yoki tig'iz bo'lib qolishi natijasida o'qituvchi barcha talabalarni amaliy ish bo'yicha tayyorgarlik darajasini tekshirib baholashga ulgurmeydi. Bunday hollarda amaliy ishlarning bajarilishini baholashning miqdoriy reyting usuli yoki kompyuter tizimidagi nazorat usulidan foydalanish mumkin. Quyida talabalar bilimini amali mashg'ulotlar bo'yicha baholashning miqdoriy reyting usuli mazmuni va mohiyati bo'yicha ba'zi bir tushunchalar haqida to'xtalib o'tamiz.

Masalan Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalariga Texnologik ta'lim o'quv rejasiga ko'ra 3-bosqich 5-semestrda "Materiallarni qirquvchi dastgohlar" fanidan bajariladigan amaliy ishlarning har biri to'liq bajarilsa 100 ball, qisman bajarilsa shunga tegishlicha, agarda bajarilmasa yoki tegishli balni to'play olmasa qoniqarsiz baholanadi.

Bu talablar, xususan amaliy mashg'ulotlarda bilimlarni to'liq baholashda asos bo'la oladigan quyidagi faoliyat omillaridan tashkil topgan bo'lishi mumkin: 1) nazariy bilimlarni egallaganlik darajasi; 2) amaliy ko'nikmalarni egallaganlik darajasi; 3) dastgoh va moslama tuzilishi haqida ma'lumotga egaligi; 4) dastgoh va moslama kinematik sxemasining mohiyatini bilishi; 5) namuna va jihozlardan to'g'ri va o'z o'rnida foydalana bilishi; 6) dastgohning ishlash tartibini tushinishi; 7) dastgoh

qismlari to'g'risidagi tushunchasi; 8) xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish darajasi; 9) hisobatni rasmiy lashtirishi va topshirishi; 10) ishga munosabati.

Yuqoridagidek amaliy ishda talabalar bilish faoliyatini baholash talablari (mezonlari) 10 tadan iborat bo'lganida, uning to'liq bajarilishi har bir talab to'liq bajarganida 10 dan bo'lganda 100 balni tashkil qiladi va bu 100% ga teng bo'ladi.

Asosiy talablar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	Jami ballar	%
Talabalar faoliyati uchun	8	7	8	6	6	7	6	5	6	7	61	61

Ushbu jadval talabaning bilimlarini baholash paytida bevosita mashg'ulotning o'zida to'ldiriladi. Yuqoridagi misolda talabaning amaliy ishni bajarishida hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari umumiy holda 61% ni tashkil qiladi. Kredit-modul tizimida talabaning joriy nazorat bo'yicha to'plagan bali bu talabga ko'ra 90% va undan yuqori bo'lsa, "a'lo" bahoga; 70-90% oralig'ida bo'lsa "yaxshi" bahoga va talab 60-70% bajarilganda esa "qoniqarli" bahoga, 60% dan kam bo'lsa "qoniqarsiz" bahoga loyiq deyish mumkin. Yuqoridagi jadvaldan ko'rinish turibdiki 61% o'zlashtirish qoniqarli bahoga to'g'ri keladi.

Talabalar bilimini miqdoriy baholashning bunday usulidan foydalanilganida talabaning bilimi talablarga javob bera olishiga qarab, bevosita sinov muloqati paytida jadvalni to'ldirib borish orqali tekshiriladi. Buning uchun taxminan 2-3 daqiqa sarflanadi.

Talabalar bilimini miqdoriy baholashning reyting tizimini amalga oshirish uchun o'qituvchi ularning mazkur usulning mazmuni, mohiyati va qoidalari bilan yaxshilab tanishtiradi. Buning uchun ko'rgazma doskasiga oldindan tayyorlab, ilib qo'yilgan maxsus jadval va talablar sxemasidan foydalaniladi.

Hisobat daftarıdagı jadval orqali talabaning qaysi faoliyat talablarini "to'liq" yoki "qisman" bajarganligi yoki bajarmaganligi ko'rsatiladi. Bu o'z navbatida o'qituvchiga har bir talabaga aynan qaysi vaziyatini birinchi navbatda yaxshilashi zarurligiga oid to'g'ri maslahatlar berishga, talabaning o'z ustida maqsadli ishlashiga ham katta imkoniyat yaratadi. Amaliy ishda o'rganilishi ko'zda tutilgan amaliy bilim, ko'nikma va malaka, vaziyat hamda didaktik imkoniyatlardan kelib chiqib, o'quv amaliy topshiriqlar ishlab chiqiladi.

Bu tizim orqali talabalar bilimini baholashdan shunday xulosaga kelish mumkinki, bu faoliyatning o'ziga xos boshqa faoliyat turlaridan farqlovchi tomonlaridan biri, uning natijasini o'qituvchi tomonidan xolisona baholashdir. Uning

xolisona va to'g'ri baholanishi bir qator ta'lim-tarbiyaviy muammolarni hal etish imkoniyatini beradi, ya'ni:

-pedagogning o'z mehnati natijalarini bevosita yoki bilvosita ko'rishi va baholay olishi;

-talabalar o'z bilish qobiliyatini va imkoniyatlaridan qanday foydalananayotganlarini ko'rishi va o'z kamchiliklarini tushunib yetishiga vaziyat tug'ilishi;

-har bir mashg'ulotda talabalar bilimini bunday tarzda to'g'ri va xolisona baholash ularning ko'proq o'z ustida ishlashiga olib kelishi;

-o'qituvchining mehnat faoliyatiga baho berishning asosiy mezoni talabalarda shakllantirilgan bilim, ko'nikma va malaka darajalari bilan belgilanishi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Umarov R. N. va Tog'aev X. Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha bilimlarning baholashning miqdoriy reyting usuli. Uzluksiz ta'lim, ilmiy-uslubiy jurnal, №2, 2007 y.89-92 b.

2. Hakimov T. M. va boshqalar Ta'lim jarayonida reyting tizimidan foydalanish ning ahamiyati va va unga qo'yiladigan talablar haqida. Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bo'lib o'tgan "Seris va turizm bo'yicha kadrlarni tayyorlash: yutuq va muammolar" respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 2008 y. 15-17dekabr, 265-266 b